

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti "Maktabgacha ta'lim"
kafedrası magistranti.

ASATOVA SEVINCH ASQARALI QIZI

Email: sevinchasatova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning nutq rivojlanish jarayoni, uning bosqichlari va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Nutqning shakllanishi insonning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi, shuningdek, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiya jarayonining muhim roli ilmiy asosda bayon etiladi. G.L. Rozengrad-Pupko hamda A.N. Leontev kabi olimlarning nazariyalariga tayanib, bola nutqining tayyorgarlik, bog'chagacha, maktabgacha va maktab davrlaridagi rivojlanish xususiyatlari ketma-ketlikda tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, bolaning fiziologik dislaliya holatlari, fonematik idrokning shakllanishi va nutq kamchiliklarini erta aniqlashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: bola nutqi, nutq rivojlanishi, nutqiy tajriba, tayyorgarlik davri, bog'chagacha davr, maktabgacha davr, maktab davri, fiziologik dislaliya, fonematik idrok, artikulyatsiya, nutq muhiti, logopedik tashxis, nutq kamchiliklari, nutqning grammatik tomoni, lug'at boyligi, nutqiy faoliyat, nutqni shakllantirish qonuniyatlari, psixofiziologik rivojlanish, nutq tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс развития речи ребёнка, его этапы и факторы, влияющие на этот процесс. Формирование речи тесно связано с физическим и умственным развитием человека, а также с правильной речевой средой и процессом воспитания и обучения. Опираясь на теории таких учёных, как Г.Л. Розенград-Пупко и А.Н. Леонтьев, в статье последовательно анализируются особенности развития речи ребёнка в подготовительный, дошкольный и школьный периоды. Кроме

того, в работе рассматриваются явления физиологической дислалии, формирование фонематического восприятия и значение раннего выявления речевых нарушений.

Ключевые слова: речь ребёнка, развитие речи, речевой опыт, подготовительный период, ранний дошкольный период, дошкольный возраст, школьный возраст, физиологическая дислалия, фонематическое восприятие, артикуляция, речевая среда, логопедическая диагностика, речевые нарушения, грамматическая сторона речи, словарный запас, речевая деятельность, закономерности формирования речи, психофизиологическое развитие, речевое воспитание.

Abstract: This article examines the process of a child's speech development, its stages, and the factors influencing it. The formation of speech is closely related to the child's physical and mental development, as well as to the proper speech environment and the process of education and upbringing. Based on the theories of scholars such as G.L. Rozengrad-Pupko and A.N. Leontiev, the article consistently analyzes the characteristics of speech development during the preparatory, preschool, and school periods. In addition, it discusses physiological dyslalia, the formation of phonematic perception, and the importance of early detection of speech disorders.

Keywords: child speech, speech development, speech experience, preparatory stage, early preschool period, preschool age, school age, physiological dyslalia, phonematic perception, articulation, speech environment, speech therapy diagnosis, speech disorders, grammatical aspect of speech, vocabulary, speech activity, laws of speech formation, psychophysiological development, speech education.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida oila muhiti muhim o'rin egallaydi. Ota-onalar bilan ko'proq muloqot qilish, turli didaktik o'yinlar va kitob o'qish bolalarda tasavvur va

tafakkur rivojlanishini jadallashtiradi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan maxsus mashg'ulotlar tafakkur rivojlanishini tizimli asosda qo'llab-quvvatlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin orqali o'rganish jarayonini tashkil qilish, ularda mantiqiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish uchun samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bolaning nutqi tug'ma qobiliyat sifatida emas, balki hayot davomida shakllanib boradigan murakkab psixofiziologik jarayon sifatida qaraladi. Nutqning to'g'ri rivojlanishi uchun atrof-muhit, kattalar nutqi, nutqiy tajriba, ta'lim va tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilgan paytdan boshlab tovush, ohang, intonatsiyaga e'tibor berish orqali nutqiy apparatini faollashtiradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish uchun bolaning normal nutq rivojlanish bosqichlarini bilish zarur, chunki bu bilim pedagog va logopedlarga nutqdagi og'ishlarni erta aniqlash imkonini beradi. Ayrim hollarda, uch yoshgacha bo'lgan bolalarda ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish tabiiy holat — fiziologik dislaliya hisoblanadi. Shu sababli mutaxassislar bola nutqining yoshga mos rivojlanish qonuniyatlarini puxta bilishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi individual va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirida shakllanadi. Ushbu jarayonlarni samarali rivojlantirish uchun pedagoglar va ota-onalar birgalikda harakat qilishi, bolalarga mos ta'lim sharoitlari yaratishi zarur. Nutq va tafakkur rivojlanishiga xizmat qiluvchi didaktik materiallar va maxsus mashg'ulotlar mazmunini boyitish, bolalarni ijtimoiy va emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Olimlar fikricha, bola nutqi bir necha bosqichda shakllanadi. G.L. Rozengrad-Pupko uni ikki bosqichga — tayyorlov va mustaqil nutq davrlariga ajratgan bo'lsa, A.N. Leontev to'rt davrni — tayyorgarlik (1 yoshgacha), bog'chagacha (3 yoshgacha), maktabgacha (7 yoshgacha) va maktab (7 yoshdan 17 yoshgacha) davrlarini farqlaydi. Ushbu davrlarning har biri o'ziga xos nutqiy rivojlanish belgilariga ega bo'lib, bola shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin

tutadi. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilishi lozim. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish jarayonidagi rivojlanish davrini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanish jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yoshu 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishina bilsa, u holda bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini xal qila oladi. Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to'g'ri diagnoz qo'yishi uchun ham zarurdir. Ba'zi mutaxassislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Shu to'g'rimi? Yo'q, albatta. Chunki, nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda ba'zi bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish xos bo'ladi. Bu ko'rinish fiziologik displaziya deb atalib, bu yoshdagi bolalarda artikulyatsiya apparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda to'g'ri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi. Olimlar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har-xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar. G. L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishni 2 davrga ajratadi: 1. Tayyorlov davri. (2 yoshgacha bo'lgan davr) 2. nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N. Leontev esa bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi: Tayyorgarlik davri-1 yoshgacha. Bog'chagacha bo'lgan davr- 3yoshgacha. Maktabgacha bo'lgan davr-7 yoshgacha. Maktab davri va davrlarning to'liq tavsifi ustida to'xtalib o'tamiz.

Shunday qilib, Birinchi davr-tayyorgarlik davri. Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin, ana shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz xosil bo'lish, artikulyatsion) rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Ikki xafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigga e'tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig'lashdan to'xtaydi. Bir oyligining oxiriga borib uni mayin qo'shiq (ALLA) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Keyinchalik u boshini gapirayotgan odam tomonga buradi yoki uni ko'zlari bilan kuzatadi. Tez kunda bola intonatsiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonatsiyaga yig'laydi. Ikki oylik atrofida gu-gulash, uch oylikning boshida bo'g'unlarning talaffuzi paydo bo'ladi (aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqadal). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi. Bola besh oyligida tovushlarni eshitadi. Atrofdagilarning lablari artikulyatsion harakatini ko'rib, unga taqlid qilishga harakat qiladi. Bolaning qandaydir aniq harakat ko'nikmasining harakatlarini ko'p marotaba takrorlashi mustahkamlanishiga olib keladi. Olti oyligidan boshlab bola taqlid qilish orqali ba'zi bo'g'inlarni talaffuz qila boshlaydi: na-na-na, be-be-be, da-da-da, pa-pa-pa va boshqalar. Keyinchalik bola taqlid qilish orqali nutqning xilma-xil elementlarini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Bunda bola nafaqat fonemalarni, balki nutqning sur'at, rim, ton, musiqaviylikni, foydaliligini o'zlashtiradi. Ikkinchi yarim yillikda bola ba'zi bir tovushlar birikmasini idrok qila boshlaydi va ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog'laydi, (bu, ma, bey) Bola yetti-to'qqiz oyligida kattalar ketidan turli xil bo'g'inlarni qaytara boshlaydi. O'n bir oyligida so'zlarning o'ziga reaksiya paydo bo'la boshlaydi (vaziyat va gapirayotgan kishining intonatsiyasidan qat'iy nazar). Bu vaqida bola shakllanayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. (kattalarning to'g'ri nutqi va kattalarga taqlid qilish va xakozolar). Bola hayotining birinchi yilining oxiriga kelib unda nutqiy aloqada bo'lish ehtiyoji o'sib boradi. U bir nimani olishni, so'rashni aytishni hohlaydi. Bu ehtiyoj bolaning butun faoliyatida ishtirok etadi va unda aktiv

nutqning paydo bo'lishini belgilab beradi. Bir yoshning oxiridan boshlab so'zlar paydo bo'ladi.

Ikkinchi davr-bog'chagacha bo'lgan davr (1 yoshdan 3 yoshgacha). Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng tayyorlov davri tugab aktiv nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilar artikulyatsiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Talaffuz vaqtida bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuzini almashtiradi yoki o'z nutqida qo'llamaydi. Bu vaqtda bola bir so'z yoki tovushlar birikmasi bilan predmetni ham, iltimosni ham, his-tuyg'uni ham ifodalashi mumkin. Bola hayotining 2-3 yiliga kelib, uning lug'at boyligi sezilarli darajada boyib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina xilma-xil tadqiqotchilar bola so'z boyligining o'sib borishida turli raqamli ma'lumotlarni ko'rsatadilar. Eng keng tarqalgan ma'lumotga ko'ra, bolalarning lug'at boyligini bog'chagacha bo'lgan davrda o'sishi quyidagi raqamlarni ko'rsatadi: 1 yoshu 6 oyda 10-15 ta, 2 yoshning oxiriga kelib 300 ta, 3 yoshda 1000 ta so'z. Bola xayotining uchinchi yiliga kelib nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola o'z hohishi va iltimoslarini har bir so'z bilan ifodalaydi. Keyinchalik 1-2 ta so'zdan iborat sodda jumlar paydo bo'la boshlaydi.

Uchinchi davr maktabgacha bo'lgan davr (3 yoshdan 6 yoshgacha). Maktabgacha bo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatidan oson talaffuz etiladigan: lab-til undoshlari (p, b, m, f, v) va boshqalarni o'rgana boshlaydilar. Artikulyatsion jihatidan talaffuz qilish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch) va til orqa (k, g) tovushlar talaffuzini egallashga qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz qilmaydilar. 3-7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi, bu esa bolaning o'zi talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Ba'zi hollarda bolalar o'z kamchiligini to'g'rlaydilar. Ularda fonematik idrok shakllanib boradi. Bu davrda lug'at boyligining o'sishi davom etadi. Bolaning 4-6 yoshida uning lug'ati 3000-4000 ta so'z gacha yetadi. Lug'at boyligi o'sib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi. Bola hayotining

4-yiliga kelib, ular o'z nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qo'llay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa qo'shma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qo'shimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu davida fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, so'ng shovqinli va sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo'lishi lozim. Bu vaqtga kelib, tovushlarni to'g'ri talaffuz o'zining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama to'g'ri aniq gapira oladi.

To'rtinchi davr maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha). Bu davrning o'ziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlarga nisbatan ongli ravishda ro'y beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yorma nutq yetakchi rol o'ynaydi. Grammatik qonstruksiyalar ham murakkablashib boradi, chunki, agar, kachonki kabi bog'lovchilarni ishlatib boshlaydilar. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda o'z ifodasini topayotganligini ko'rsatadi. Bola nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus sharofriar zarurdir. Buning uchun: bola ruxiy va jismoniy jihatidan sog' bo'lishi, normal aqlli qobiliyatga ega bo'lishi normal eshitish va ko'rishi, yetarli darajada ruxiy aktivlikka ega bo'lishi, gaplashish ehtiyojiga ega bo'lishi, to'g'ri nutq muxitiga ega bo'lishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolaning nutqi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u tabiiy sharoitda, kattalar bilan muloqot asosida rivojlanadi. Nutqning to'g'ri shakllanishi uchun sog'lom jismoniy va ruhiy holat, to'g'ri nutq muhiti, tinglash va takrorlash imkoniyatining mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Bola nutqining rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish, pedagog va logopedlarga nutqdagi kamchiliklarni erta aniqlash, ularni bartaraf etishning to'g'ri usullarini tanlashda yordam beradi. Har bir yosh davrida bola nutqiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish orqali nutq tarbiyasi samaradorligini

oshirish mumkin. Nutqning to'g'ri shakllanishi esa bolaning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahimova G. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2020.
2. G'aniyeva M., Karimova M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2021.
3. Nurmatova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi. – Toshkent, 2022.
4. Hamidov D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2016. 39-bet.
5. Rozengrad-Papko G.L. Ilk yoshdagi tarbiya nazariyasi va rivojlanishi. Moskva, 1963.
6. Leontev A.N. Bolaning rivojlanish psixologiyasi. Moskva: Prosveshchenie, 1978.
7. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. Moskva: Pedagogika, 1982.
8. Zimnyaya I.A. Bolalar rivojlanish psixologiyasi. Moskva: Prosveshchenie, 1995.
9. Ivanova I.P. (tahr.) Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini logopedik tashxis va tuzatish. Moskva: Prosveshchenie, 2001.